




elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.3 (2)
2024

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i>	
INNOVATSION TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA MOHIYATI	3
<i>Jumaniyozova Zarnigor Maxammadi qizi</i>	
OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI KORRUPSIYAVIY HOLATLARNI SODIR ETUVCHI SHAXSLAR TASNIFI	19
<i>Tilavova Sadaf To'lqin qizi</i>	
O'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TABIATI	26
<i>Qozixonova Duraxshon Nasriddinovna</i>	
ISLOM HUQUQIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA HALOLLIK TAMOYILI	33
<i>Aliyeva Marjona Obid qizi</i>	
ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARGA OID QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	42
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i>	
SUD ISHLARINI YURITISHDA SHAFFOFLIKNI TAMINLASH ZARURATI VA MOHIYATI	52

O'ZBEKISTON VA GERMANIYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TABIATI

Tilavova Sadaf To'liqin qizi | sadaftilavova2021@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston va Germaniyada tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun normalari, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish ahamiyati va davlat iqtisodiyotida tutgan o'rni, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish asoslari O'zbekiston va Germaniya qonunchiligi asosida yoritilgan. Mamlakat iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uning jahon hamjamiyatidagi o'rni bilan mustahkamlanadi. Bunda esa davlatdagi tadbirkorlarning huquqlari qay darajada qonunlar bilan tartibga solinib mustahkamlanganligi, himoyalanganligi bilan bevosita bog'liqdir. Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish usullari va mexanizmlarini yanada kuchaytirish, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash, rivojlanagan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish ushbu sohani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot sharoitida mamlakatda qulay investitsiyaviy muhitni yaratish, tadbirkorlar o'rtasida sog'lom va erkin raqobat muhitini rivojlantirish har doim davlatlar oldidagi muhima vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Germaniya, milliy qonunchilik, davlat, tadbirkorlik faoliyati, huquq, qonunchilik, biznes qonunchiligi, tadbirkorlik munosabati subyektlari, normativ-huquqiy hujjatlar, tadbirkorlar.

LEGAL BASIS AND NATURE OF PROTECTION OF ENTREPRENEURS' RIGHTS IN UZBEKISTAN AND GERMANY

Tilavova Sadaf To'liqin qizi

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. The article covers the legal norms aimed at regulating business activities in Uzbekistan and Germany, the importance of protecting the rights of entrepreneurs and their role in the state economy, the basics of protecting the rights and legal interests of business entities based on the legislation of Uzbekistan and Germany. The country's economic development is strengthened by its place in the world community. In this case, it is directly related to the extent to which the rights of entrepreneurs in the state are regulated, strengthened and protected by laws. Strengthening the methods and mechanisms of protection of the rights of entrepreneurs, ensuring their actual implementation, using the experience of developed foreign countries is of great importance in the further development of this field. Creating a favorable investment environment in the country in the economic conditions based on market relations, developing a healthy and free competitive environment among entrepreneurs has always been one of the important tasks before the states.

Key words: Uzbekistan, Germany, national legislation, state, entrepreneurial activity, law, legislation, business legislation, subjects of entrepreneurial relations, regulatory legal documents, entrepreneurs.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА И ХАРАКТЕР ЗАЩИТЫ ПРАВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И ГЕРМАНИИ

Тилавова Садаф Тулкин кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассмотрены правовые нормы, направленные на регулирование предпринимательской деятельности в Узбекистане и Германии, значение защиты прав предпринимателей и их роль в экономике государства, основы защиты прав и законных интересов субъектов предпринимательства на основе законодательства Узбекистана. и Германия. Экономическое развитие страны подкрепляется ее местом в мировом сообществе. В данном случае это напрямую связано с тем, насколько права предпринимателей в государстве регулируются,

укрепляются и защищаются законами. Большое значение в дальнейшем развитии данной сферы имеет усиление методов и механизмов защиты прав предпринимателей, обеспечение их фактической реализации, использование опыта развитых зарубежных стран. Создание благоприятной инвестиционной среды в стране в экономических условиях, основанных на рыночных отношениях, развитие здоровой и свободной конкурентной среды среди предпринимателей всегда было одной из важных задач, стоящих перед государствами.

Ключевые слова: Узбекистан, Германия, национальное законодательство, государство, предпринимательская деятельность, закон, законодательство, предпринимательское законодательство, субъекты предпринимательских отношений, нормативные правовые документы, предприниматели.

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so`ng tadbirkorlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish, tashabbuskorligini qo`llab quvvatlash, adolatli raqobat uchun shart-sharoit yaratishda ijobiy harakatlar amalga oshirilib kelinmoqda. Qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan huquqiy asoslar, ya`ni normativ huquqiy hujjatlar va boshqa manbalar o`z huquqiy tabiati va chegarasiga ega bo`lib, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda, tadbirkorlik faoliyatini ishlash mexanizmi va uning jamiyatda erkin harakat qilishini ta`minlab beradi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati va uning rivojlanishiga ta`sir etuvchi turli xil manbalar ham mavjud bo`lib, mazkur manbalar huquq sohasi tarkibiga kiruvchi ham amaliy ham nazariy jihatdan tartibga solish vositasi sifatida olinishi mumkin. Bundan huquq sohasi sifatida biznes huquqining rivojlanishi, uning manbaalarini aniqlash, shuningdek, davlat va huquq nazariyasining barcha huquq sohalarini tartibga solishda birlamchi asos sifatida olingan huquq manbalariga murojaat etish orqali asoslash mumkin.

Tadbirkorlik sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlari tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ahamiyatli bo`lishi, jamiyat va xalq manfaatlariga xizmat qilishi, eng muhimi o`z faoliyat sohalarini yetarli darajada tartibga solishi lozim. Shundagina, ham huquq manbasi sifatida, ham normativ-huquqiy hujjat sifatida o`z ahamiyatiga ega

bo'lad. N.Saburov va M.Najimovlar tomonidan esa huquq manbalari sifatida huquqiy odat, huquqiy pretsedent, normative-huquqiy hujjat va normativ shartnomalarni keltirishadi.

Shuningdek, X.T.Odilqoriyev, Z.M.Islomovlarning ilmiy qarashlarida ham mazkur keltirib o'tilgan manbalar huquqning umumiy manbalari hisoblanib, tartibga solishga qarab ular turli huquq sohalariga mansubdir. Misol sifatida urf-odatlar olinadigan bo'lsa, uning tadbirkorlik faoliyati va umumiy huquq tamoyillaridagi o'rnini ko'rish mumkin. Huquqiy odatlar, avvalambor davlatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi davrida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqning ilk tarixiy manbai bo'lganligini aytib o'tish lozim. Umuman, urf-odat deganda amalda mavjud bolgan haqiqiy munosabatlarning doimiy va bir xilda takrorlanishi asosida tarkib topgan xulq-atvor qoidalari tushiniladi. Lekin davlatning rasmiy ma'qullashishiga sazovor bo'lgandan keyingina huquqiy odat ma'no kasb etadi[2].

Demak, urf-odatlar huquqiy sohani tartibga solishi, huquq manbasi sifatida shakllanishi uchun yillar davomida tarkib topgan xulq-atvor qoidalari sifatida davlat tomonidan berilgan rasmiy maqomga, ya'ni agar mazkur odatlar bajarilmaganda yuridik kuchga ega bo'lishi va uning ma'lum bir oqibatlar olib kelishi zaruriy hisoblanadi. Shunindek, tadbirkorlik faoliyatida odatlarni rasmiy tartibga solish manbasi sifatida ular qachonki davlatning irodasi bilan qabul qilinsa manba sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Aytib o'tish lozimki, Germaniya davlati huquq tizimi ham davlatimizning huquq tizimiga o'xshash jihatlari ancha bo'lib, ikkala davlat ham roman-german huquq oilasiga mansub huquq tizimga ega hisoblanadi. Germaniya ham tadbirkorlik huquq sohasini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi qonunchilik bazasi, normativ-huquqiy hujjatlarga ega hisoblanadi.

Qolaversa, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq Germaniya qonunchiligi tadbirkorlik huquqining deyarli barcha sohalarini tartbiga solishga bag'ishlangan. Yuqorida tadbirkorlik faoliyati tamoyillari sifatida keltirib o'tganimiz tadbirkorlik erkinligi prinsipi Germaniya asosiy qonuni bilan mustahkamlab qo'yilgan bo'lsada, "Biznes amaliyoti to'g'risidagi" qonun (Gewerbeordnung - GewO) ga muvofiq tadbirkorlarning o'z faoliyatlarini boshlashda xabardor qilish qoidasi belgilangan. Unga ko'ra garchi tadbirkorlik erkinligi 1-bo'limga muvofiq amal qilsada, har qanday biznes, zavod, savdo yoki sanoat korxonasi, xoh milliy yoki xorijiy korxona bo'lishidan qat'iy nazar, o'z

biznesi haqida tegishli mahalliy ma'muriyatni va soliq organlarini xabardor qilishi lozim hisoblanadi.

Shuningdek, tadbirkorlar yuritadigan faoliyat sohalari ham turlarga bo'linib, ayrim faoliyat turlari bilan shug'illanish uchun albatta maxsus litsenziyalarr, ruxsatnomalar talab qilinadi. Germaniyada ham alohida qoidalar asosida tartibga solinadigan faoliyat turlari bo'lib ular uchun alohida litsenziyalash amaliyoti amal qiladi. Yarim sanoat tarmoqlari uchun, keng jamoatchilikni xavfli biznes amaliyotlaridan himoya qilish uchun korxonalar uchun maxsus litsenziyalar olinishi belgilab qo'yilgan. Ushbu faoliyat sohalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Sug'urta biznesi;
- ijjorat banki;
- ko'chmas mulk, uy-joy, investitsiyalar bo'yicha brokerlar va agentlar;
- investitsiya fondlari;
- aktivlarni saqlash va xavfsizlik korxonalari;
- Lombardlik va auksion savdolari;
- Qimor;

Ushbu yurqorida keltirib o'tilgan tadbirkorlik faoliyat sohalari uchun belgilangan tartibda litsenziya olish talab etiladi. Shuningdek, litsenziyalash tartib-taomilidan tashqari maxsus biznes ruxsatnomalar olish tartibi ham mavjud. Albatta bu ruxsatnomalarni olish tartibini joriy qilishdan maqsad ma'lum bir xavf-xatar yoki ziyonni oldini olish hisoblanadi. Germaniyada ko'pgina davlatlarda bo'lgani kabi qat'iy ekologik qoidalar mavjud bo'lib, atrof-muhitga aniq zarar yetkazuvchi, o'z-o'zidan xavfli, ifloslantiruvchi va boshqa shu kabi zararli oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari uchun albatta, davlat tomonidan maxsus ruxsat olish kerak bo'ladi[3].

Shuningdek, obyektlar va ularning modifikatsiyalari qonunchilikda belgilangan "Texnik ko'rsatmalar" dagi qat'iy standartlarga muvofiq bo'lishi kerak. Litsenziyalar va maxsus ruxsatnomalar olish tartibi tadbirkorlar tomonidan ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelinishiga sababchi bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda tadbirkorlar litsenziyalash jarayonining murakkabligi haqida shikoyat qilishadi. Va bu o'z navbatida Germaniya hukumati va qonun chiqaruvchi organlar tomonidan ushbu qoidalarni qayta ko'rib chiqish murakkablik va tadbirkorlar uchun yukni kamaytirish uchun zarurdir. Tadbirkorlarning

huquqlarini himoya qilish usullariga biz intellektual mulk bilan bog'liq huquqlar himoyasini ham misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda, patentlar bilan bog'liq mavjud tartib qoidalarga esa nazar tashlaydigan bo'lsak, Germaniya qonunchiligi bo'yicha patentlar oddiy ixtirolarga emas, faqat texnik sohalardagi ixtirolarga beriladi. Ular butun dunyo bo'yicha yangi bo'lgan ixtirochilik bosqichini o'z ichiga olgan va sanoatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnik ixtirolarga beriladi. Patent patent egasiga keyingi kundan boshlab 20 yil davomida patentdan foydalanishning mutlaq huquqini beradi. O'z navbatida Ixtirodan faqat patent egasining roziligi bilan foydalanish mumkin bo'ladi. Patentlar barcha texnik sohalardagi ixtirolarga berilishi mumkin va oddiy kashfiyotlar uchun patent berilmaydi, misol uchun ilmiy nazariyalar, matematik usullar, sxemalar, qoidalar va aqliy harakatlarni bajarish, o'yin o'ynash yoki bajarish usullari, biznesda masalan. tashkilot modellari va ushbu turdagi boshqa kashfiyotlar uchun patentlar berilmaydi[3].

Ixtiro patent himoyasini olish uchun Germaniya Patent va Savdo Markazi idorasida (Deutsches Patent- und Markenamt - DPMA) ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Germaniyada DPMA sanoat mulkining markaziy organi hisoblanadi[4]. Shuningdek, chet elliklar ham Germaniyada patent olish uchun ariza topshirishlari mumkin. Yevropa patentlari esa Yevropa Patent Konventsiyasi (EPC) asosida beriladi[5].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston va Germaniya qonunchiligining huquqiy tabiati bir biriga o'xshash juhatlari borligi ularning bitta huquq tizmiga mansubligi bilan asoslanadi. Asosiy qonunimizda tadbirkorlik huquqining asosiy negiz va tamoyillar Konstitutsiyamiz bir nechta moddalarida belgilangan. Uning 65-moddasiga muvofiq O'zbekiston iqtisodiyotining negizining xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi[1]. Bundan ko'rinib turibdiki, davlat bozor munosabatlarini rivojlantirishda asosiy vazifa sifatida o'ziga tadbirkorlar o'rtasida halol raqobatni, tadbirkorlarning erkin iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishlarini ta'minlashni o'zining ustuvor vazifasi sifatida ko'radi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.
2. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi/ Mas'ul muxarrirlar: X.Raxmonqulov, akademik, yu.f.d.prof; X.Boboye, yu.f.d.prof. – T.:Adolat, 2007.-580-581 betlar.
3. “Investment in Germany” by Marco Grundig and Andreas Glunz, International business Germany-2016, 22-page.
4. www.dpma.de
5. www.epo.org/patents.html.
6. A. Muhammadiyev. Fuqarolik huquqiy tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari. Dissertatsiya. Toshkent-2012. 40 b.
7. Рахманкулов Х.А. Возникновение и развитие советского гражданского законодательства Узбекской СССР// Правоведение. 1975. - №9. – Б.66-72: И.Б. Закиров. Становление и развитие советского гражданского права в БНСР и ХНСР. – Ташкент, Фан, 1988. – Б.60-64.
8. Закиров И.Б Становление и развитие советского гражданского право в БНСР и ХНСР. – Ташкент, Фан, 1998. 35 с.
9. Братусь С.Н. Предмет и метод Советского гражданского право.-М., 1963. 143 с.
10. Братусь С.Н. Предмет и система гражданского право// Правоведение. 1960.- №1. 48 с.